IQTISODIYOTDAGI INNOVATSION O'ZGARISHLAR SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	808
Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi	
SPORT ANJOMLARI SANOATIDA INNOVATSION JARAYONLARNI TIZIMLASHTIRISH MODELINING ZARURATI.....	813
Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich	
GREEN MARKETING STRATEGIES AND THE APPLICATION OF NEUROMARKETING METHODS IN THEIR DEVELOPMENT.....	819
Samadov Asqar Nishonovich, Latipova Go'zal	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA KICHIK KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	825
Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING EMPIRIK TAHLILI	831
Nazarova Ra'no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o'g'li	
YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MEHMONXONALAR ROLI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.....	840
Raxmonova Nigina Anvarovna	
IJTIMOII SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI: O'ZBEKISTONNING AMALIY YONDASHUVI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	844
Bafojev Farrux Jo'raqulovich	
AHOLI IJTIMOII HIMOYASINI KUCHAYTIRISH MUAMMOLARI	852
Ulashev Xubbim Askarovich	
YASHIL TA'LIM RIVOJLANISH BOSQICHLARI: YAPONIYA MISOLIDA	856
Raxshona Nabibullayeva	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON SAVDONING MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI.....	861
Mo'minov Yahyobek Shokirjon o'g'li	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	865
Toshev Akmal Salimovich	
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQADA AHOI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	874
Quldasheva Maftuna Musurmon qizi	
ФАКТОРЫ И МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	878
Алиева Эльнара Аметовна, Рахматхонов Саидодилхон Расулхон угли	
МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В СТРАНАХ С РАЗВИВАЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКОЙ: РОЛЬ ESG-ИНСТРУМЕНТОВ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ РЫНКА ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И МАЛАЙЗИИ.....	884
Нарзуллаева Мехрангиз Ақобировна	
DORIVOR O'SIMLIKLA SAVDOSIDA QIYMAT ZANJIRI TAHLILI: IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH OMILLARI.....	893
Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI SAVDO AYLANMASI TAHLILI	899
Voxidova Mehri Xasanovna	
GLOBAL KOMPANIYALARDA RAQAMLI MENEJMENTNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	905
Axmedov Sardor Shuxrat o'g'li	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.....	912
Jumanazar Xolmuminov	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI	916
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	921
Rahmatullayev Bobir Chorshamiyevich	



FINANCING WATER RESILIENCE: A FEASIBILITY ANALYSIS OF SOVEREIGN BLUE BOND ISSUANCE IN UZBEKISTAN.....	926
Yakubov Jakhongir	
УКРЕПЛЕНИЕ ПАРТНЁРСТВО И СОЗДАНИЕ ЕДИНСТВЕННОГО ЭНЕРГОРЫНКА В УЗБЕКИСТАНЕ	929
Каримова Нуржахон Олим кизи	
ИННОВАЦИОННАЯ ЗРЕЛОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ МОДЕЛИ	935
Алиева Эльнара Аметовна, Табаков Евгений Сергеевич	
"BUDJET JARAYONLARIDA XAVFLARNI ANIQLASH VA BAHOLASH: ICHKI AUDIT YONDASHUVLARI"	941
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna, Nishonxo'djaev Bekzod Baxodir o'g'li	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI	947
Raximov Baxromjon Ibroximovich	
O'ZBEKISTONDA SUT SEKTORINING QIYMAT ZANJIRINI SANOATLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	951
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBIDA XARAJATLAR HISOBİ VA KALKULYATSIYA TIZIMLARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	955
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi	
АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDA RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	



SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI



Adashev Azimjon Urinboyevich
NamDTU, Menejment kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Sanoat korxonalari milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'inini tashkil etadi. Shu bilan birga, ular nafaqat milliy iqtisodiyotda, balki ijtimoiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada sanoat korxonalarida mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport, raqobat siyosati, raqobatbardoshlik, ixtisoslashuv, infratuzilma, ilmiy-texnik salohiyat, mehnat resurslari.

Abstract. Industrial enterprises are the main link of the national economy. At the same time, they play an important role not only in the national economy but also in the social sphere. The article examines the ways to increase the competitiveness of products in industrial enterprises.

Key words: export, competition policy, competitiveness, specialization, infrastructure, scientific and technical potential, labor resources.

Аннотация. Промышленные предприятия являются основным звеном национальной экономики. При этом они играют важную роль не только в народном хозяйстве, но и в социальной сфере. В статье рассматриваются направления повышения конкурентоспособности продукции промышленных предприятий.

Ключевые слова: экспорт, конкурентная политика, конкурентоспособность, специализация, инфраструктура, научно-технический потенциал, трудовые ресурсы.

KIRISH

Bugungi kunda jahon bozorida sanoat korxonalarida mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijalari xalqaro kapital harakatining transmilliylashuvi va konsentratsiyalashuvi sharoitida shakllanayotgan zamonaviy iqtisodiy munosabatlarni o'zida mujassam etib, raqobat intensivligiga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish zaruratini asoslab bermoqda. Mazkur jarayonlarning ustuvor ahamiyati eksport va import hajmlarining oshishi bilan tavsiflanadigan, tobora murakkablashib borayotgan xalqaro savdo munosabatlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, barqaror raqobat ustunliklarini ta'minlash, ichki bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda tashqi bozorga yo'naltirilgan tovar va xizmatlar tarkibini takomillashtirish va assortimentini kengaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida barqaror iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga erishilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim tarmoqlarning raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirish, jahon bozori uchun mahsulot ishlab chiqarish va eksportga ixtisoslashuv jarayonlarini chuqurlashtirish, ichki iqtisodiy salohiyatni to'liq namoyon etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, kredit va moliyaviy tizimning zamonaviy instrumentlarini keng joriy etish, shuningdek, infratuzilma, ilmiy-texnik salohiyat va mehnat resurslaridan maqsadli va samarali foydalanish



bo'yicha tizimli yondashuvlarni rivojlantirish eksport salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Poznerning "texnologik uzilish" savdo nazariyasi nisbatan "ishlab chiqarish omillari" nazariyasiga asoslangan bo'lib, uni to'ldiruvchi xususiyatga ega. R. Vernonning "mahsulotning hayotiylik sikli" nazariyasi hamda M. Porterning "raqobatbardoshlik rombi" konsepsiyasi esa "ishlab chiqarish omillari" nazariyasiga muqobil yondashuv sifatida shakllangan. Ushbu nazariyalarning muhim jihati jahon savdosida texnik taraqqiyotning rolini kuchaytirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda ichki raqobat muhitining hal qiluvchi ahamiyatga egaligini asoslab berishdan iboratdir [1].

XIX asrda mamlakat eksport raqobatbardoshligini oshirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar xorijiy iqtisodchi olim V. L. Kvint tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Uning fikricha, eksportni rag'batlantirishda ma'muriy usullarga nisbatan ochiq bozor mexanizmlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. R. Hausman, J. Xvang va D. Rodriklarning tadqiqotlariga ko'ra, eksportni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, bunda jahon bozoridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, qiyosiy hamda statistik tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot doirasida rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, olingan natijalar tizimlashtirildi va umumlashtirildi. Mazkur usullar asosida sanoat korxonalarining eksport salohiyati, mahsulot raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar hamda ularni rivojlantirish yo'nalishlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning tabiiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning eksport salohiyatini oshirish, hududlarda eksport faoliyatini amalga oshirayotgan ishlab chiqarish korxonalariga axborot, moliyaviy, maslahat, sug'urta hamda xorijiy bozorlar bo'yicha marketing xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Shuningdek, eksportni nomarkazlashtirish va hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mintaqalarning eksport salohiyatini oshirish va mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini izchil davom ettirish orqali respublikaning eksport salohiyatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalangan holda mahalliy sanoat tarmoqlarining eksport salohiyatini rivojlantirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini ko'paytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [3]. Mazkur yo'nalishlar milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi.


Mahsulot raqobatbardoshligi, avvalo, uning sifat ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Bozor munosabatlari sharoitida mahsulot sifatini iste'molchi talablari va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan baholash muhim hisoblanadi. Bu esa iste'molchiga bozorda mavjud mahsulotlar orasidan eng maqbulini tanlash imkoniyatini yaratadi hamda ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sifatini doimiy ravishda takomillashtirib borishga undaydi.

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqarish mahsulotlari va xomashyoning raqobatbardoshligini bir qator omillarni inobatga olgan holda baholash lozim. Jumladan:

- iqtisodiy omil – yakuniy mahsulot tannarxi va narx ko'rsatkichlari asosida;
- texnologik omil – ishlab chiqarish jarayonlarini istiqbolda modernizatsiyalash imkoniyatlarini hisobga olgan holda;
- ijtimoiy omil – ishlab chiqarish yo'nalishini o'zgartirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy xarakterdagi xarajatlarni inobatga olgan holda.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqqan holda, raqobatbardoshlik deganda iste'molchi uchun maqbul bo'lgan, mamlakat ichida va tashqarisida ishlab chiqarilayotgan o'xshash mahsulotlar bilan taqqoslaganda ustunlikka ega bo'lgan mahsulotning bozordagi o'rtacha iste'mol narxi, sotish vositalari va usullari hamda uning iste'mol qiymatini aks ettiruvchi kompleks ko'rsatkichlar majmui tushuniladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, istiqbolda aholi daromadlarining oshishi va xarid qilish imkoniyatlarining kengayishi mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishiga xizmat qiladi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish va mahsulot raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatida sanoat korxonalarining soni, birlikda [4]

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga e'tibor qaratilsa, Namangan viloyati bo'yicha ro'yxatga olingan sanoat korxonalari soni so'nggi o'n yillikda barqaror sur'atlarda oshib borayotgani kuzatiladi. Xususan, 2024-yilda ro'yxatga olingan sanoat korxonalari soni 8 288 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 109 foizga o'sganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2024-yilda ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalarining qariyb 60 foizi faol korxonalar hisoblanadi. Mazkur holat viloyatda sanoat faoliyatining faollashib borayotganini, ishlab chiqarish salohiyatining kengayayotganini hamda hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida sanoat tarmog'ining muhim o'rin tutayotganini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyati sanoat korxonalarining eksport tarkibi[4]

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Eksport tarkibi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	13,7	39,6	36,6	45,5	37,3	35,1	35,3	27,5	18,0	18,7	15,6
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,4	0,4	1,4	1,8	3	1,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,0	0,5	1,3	0,4	0,0	0,0	0,9	0,1	0,2	0,2	0,6
Qora va rangli metallar	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,3	0,3	2,7	0,8	1,7	1
Mashina va asbob-uskunalar	0,5	0,9	0,6	0,5	0,2	2,1	4,3	2,1	2,0	1,8	3,2

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi o'n bir yil (2013–2023-yillar) davomida respublika umumiy eksporti tarkibida sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan besh turdagi asosiy mahsulotlar salmoqli ulushga ega bo'lgan. Ushbu mahsulotlar qatoriga oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va



undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar hamda mashina va asbob-uskunalar kiradi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan materiallar va statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, viloyat eksport hajmining o'sish ko'rsatkichlari ayrim davrlarda notekis bo'lgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya eksport tarkibining diversifikatsiyalanib borayotganini aks ettiradi. Bu holat viloyat sanoatining tarkibiy jihatdan rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Respublika eksport faoliyatida sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ulushi yuqori bo'lib, ushbu ulushni yanada oshirish, ayniqsa eksport tarkibida tayyor mahsulotlar hajmini ko'paytirish masalasi ustuvor vazifa sifatida dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirish hamda eksport samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan sanoat korxonalari soni yildan yilga oshib bormoqda va ular tarkibidagi faol korxonalar ulushi barqaror ravishda yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Mazkur holat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va ularning eksport imkoniyatlarini oshirish uchun yetarli salohiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning eksportini kengaytirish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon milliy iqtisodiyotning jahon bozorlariga integratsiyalashuviga, shuningdek, turli sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, raqobat muhiti ishlab chiqarish korxonalarining malaka bazasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi, biroq mazkur bazani samarali rivojlantirish uchun uni muntazam ravishda kengaytirish va takomillashtirib borish zarur. Bu esa korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, transport-logistika va sanoat sohalarini yanada rivojlantirish uchun tizimli va kompleks yondashuvni joriy etish zarur. Xususan, chegara va mamlakat hududida bojxona jarayonlarining samaradorligini oshirish, soha bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni izchil tatbiq etish mavjud muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkonini beradi. Transport-logistika tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, transport avtoparklarini yangilash, tashqi savdo jarayonlarida ishtirok etuvchi vakolatli davlat organlari o'rtasida integratsiyalashgan raqamli axborot platformalarini joriy etish, logistika tizimida yagona boshqaruv va muvofiqlashtirish mexanizmlarini shakllantirish hamda ortiqcha bo'g'inlarni qisqartirish orqali tashish jarayonlarida vaqt va xarajatlarni optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, avtomagistralarni modernizatsiya qilish transport vositalarining optimal harakatlanish tezligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning eksport hajmini oshirishga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga hamda mamlakatning jahon bozorlariga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vernon, R. International Investment and International Trade in the Product Cycle // The Quarterly Journal of Economics. – 1966. – Vol. 80, No. 2. – P. 190–207. – DOI: JSTOR 1880689.
2. Porter, M. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. – М.: Международные отношения, 1993. – 896 с.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: PF-60-son Farmon. – 2022-01-28. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (Namstat). – URL: <https://namstat.uz>
5. Колтынюк, Б. А. Инвестиционные проекты: конспект лекций. – СПб.: Изд-во Михайлова В. А., 1999. – 10 с.
6. Фридман, Дж., Ордуэй, Н. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости / пер. с англ. – М., 1995. – 441 с.
7. Бизнес: Оксфордский толковый словарь. – М.: Прогресс-Академия; Издательство РГГУ, 1995. – 335 с.
8. Mirziyoyev, Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – 2022-12-20.
9. Adashev, A. O'. Korxonalarda innovatsion rivojlanishning tarkibiy asoslari // Nauchnoe znanie sovremennosti. – 2017. – № 4. – B. 8–12.
10. Адашев, А. У., Аскаралиев, А. Современные подходы к показателям и ценностям экономического развития // Теория и практика современной науки. – 2017. – № 2. – С. 28–30.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
